

# “Qo'ng'irotd soda zavodi” MCHJ qo'shma korxonasiga OAV vakillari uchun press-tur tashkillashtirildi

// 22.06.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kungirod-soda-zavodiga-oav-vakillari-uchun-press-tur-tashkillashtirildi>



Joriy yilning 22-iyun sanasida Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan “Qo'ng'irotd soda zavodi” MCHJ qo'shma korxonasiga OAV vakillari uchun press-tur tashkillashtirildi. Unda press-tur ishtirokchilari zavod faoliyati, ishlab chiqarish jarayonlari, yangi loyihalar, ishchilarga yaratilayotgan sharoitlar va “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan ham yaqindan tanishishdi.



Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan "Qo'ng'irotda soda zavodi" 2006-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irotda tumani Ustyurt tekisligida qurilib ishga tushirilgan. Zavodni qurishdan maqsad mahalliy xom ashyoni kompleks qayta ishlashga jalb qilish va bu orqali import o'rnini bosadigan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, xalq xo'jaligi tarmoqlarining kalsinatsiyalangan sodaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hisoblangan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-noyabrdagi PQ-1853-sonli qarori asosida Qo'ng'iro't soda zavodining kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarish quvvatini yiliga 100 ming tonnadan 200 ming tonnaga yetkazish loyihasi amalga oshirildi. Loyiha bo'yicha Jamansoy ohak toshi kareri quvvatini yiliga 240 ming tonnadan 400 ming tonnaga, Barsakelmes tuz koni quvvati yiliga 330 ming tonnadan 470 ming tonnagacha kengaytirildi.



Loyiha amalga oshirilishi natijasida qo‘shimcha 400 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilib, jami 1800 ga yaqin fuqaro ish bilan ta‘minlanishiga erishildi. Korxonada xodimlarining ish vaqtidan unumli foydalanish uchun 2021-yil iyul oyidan boshlab barcha xodimlarga 3 smenada bepul issiq ovqat bilan taminlash yo‘lga qo‘yilgan.



“Qo’ng’irot soda zavodi” MCHJ qo’shma korxonasida kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarish jarayoni an’anaviy Solve uslubida amalga oshiriladi. Jarayonning o’ziga xos farqi ohak toshni koks yoki ko’mir bilan emas, balki tabiiy gaz bilan kuydirish hisoblanadi.



Texnologik obyektlarni qurish Xitoyning «CITIC» kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirildi. 2016-yilning avgust oyida loyiha bo'yicha qurilish ishlari yakunlanib, Qo'ng'iro't soda zavodining kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarish quvati yiliga 200 ming tonnaga yetkazildi.



Zavod ishlab chiqarish quvvati oshirilganidan keyin, oxirgi besh yil ichida 1 mln tonnadan ortiq kalsinatsiyalangan soda mahsuloti ishlab chiqarilib, shundan 300 ming tonnadan ortig'i eksportga va 700 ming tonna mahsulot ichki bozorga sotilishiga erishildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son qarori ijrosi doirasida "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ qo'shma korxonasi "Uz-Kor Gaz Chemical" MCHJ QK bilan hamkorlikda yiliga 20,6 ming kub.metr atmosferani ifloslantiruvchi karbonat angidrid (98-99%) tashlama gazlarini qayta ishlash loyhasini ishga tushirdi. Mazkur loyiha korxonada ishlab chiqarish quvvatini yanada oshirib, yiliga qo'shimcha 10 ming tonnaga yaqin kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, loyihani ishga tushirish natijasida texnologik jarayonlardagi karbonat angidrid gazi miqdori 40 foizgacha yetkazilib, mazkur omil texnologik jarayonlarning yaxshilanishi, asosiy uskunalarning barqaror ishlashini ta'minlashga hamda xom ashyolar sarfining kamayishiga imkon yaratadi.





2021-yil 7-dekabr kuni osh tuzi ishlab chiqarish sexi qaytadan ishga tushirildi. Osh tuzi ishlab chiqarish sexi qayta ishga tushishi natijasida 12 nafar kishini ish bilan ta'minlashga, oyiga 850 tonnagacha tozalangan maydalangan osh tuzi ishlab chiqarish va xaridorlarga yetqazib berishga erishildi.



OAV vakillari uchun "Qo'ng'iro't soda zavodi" MCHJ QKda o'tkazilgan press-tur doirasida "Sahrodagi Luvr" nomi bilan mashhur bo'lgan Nukus shahridagi Savitskiy muzeyiga ham sayohat uyushtirildi.





«O'zkimyosanoat» AJ Matbuot xizmati